

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi ichki audit xizmatining
2024-yil yillik faoliyati bo‘yicha
HISOBOTI**

1. Umumiy ma’lumotlar

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida 2023 yil 1 avgustda 2 ta shtat birligidan iborat tashkiliy shakli bo‘lim sifatida “Ichki audit bo‘limi” tashkil etilgan bo‘lib, IAMMS 0494 28.02.2024 ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lgan Sadikov Alisher Djalalitdinovich bo‘lim boshlig‘i va IAMMS 0608 29.06.2024 ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega Izbasarov Baxodir Ergashevich bosh mutaxassis lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Vazirlilik tizimida jami 17 ta korxona va davlat muassasalari bo‘lib, shundan byudjet tashkilotloari soni 3 tani, byudjetdan mablag‘ oluvchi va xo‘jalik hisobidagi tashkilotlar soni 14 tani tashkil qiladi. Markaziy apparatda 2 ta, byudjet muassasalarida 2 ta bosh auditor shtat birliklari mavjud.

Vazirlilik tizimidagi ichki audit bo‘limi xodimlarini doimiy ravishda malakasini oshirib borish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “O‘quv markazi”ga 2025-yilda malakasini oshirish rejalashtirilgan ichki audit xizmati xodimlarining ro‘yxati taqdim etildi.

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi Ichki audit bo‘limi tomonidan xisobot davrida yillik rejadagi 6 ta tadbirlar o‘tkazilgan bo‘lib, yillik reja 100% foizga bajarildi.

Xisobot davrida jami 2 ta rejadan tashqari ichki audit tadbirlari o‘tkazilgan.

O‘tkazilgan ichki audit tadbirlarida 20 holatda jami 2 233,7 mln.so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan bo‘lib, shundan 1 971,0 mln.so‘m mablag‘ maqbullashtirilib, qolgan qismi tegishli shaxslardan undirilib, tiklanishi ta’minlandi. Jumladan,

“Geologiya fanlari universiteti” DMning 2024 yil uchun mo‘ljallangan davlat byudjeti mablag‘lari bo‘yicha belgilangan 10 mlrd.so‘mlik xarajatlar smetasi o‘rganib chiqilib, 1,5 mlrd.so‘mga (15% foiz) maqbullashtirildi va 110,5 mln.so‘mlik ortiqcha to‘lovlar aybdor shaxslardan undirilishi ta’minlandi.

“Geologiya va geofizika instituti” DMning 2024 yil uchun davlat dasturi doirasida loyihalar smetasida yagona ijtimoiy to‘lov uchun ko‘zda tutilgan hisob-kitoblar 25% dan 12% ga kamaytirilganligi sababli geologik loyiha-smetalari qayta hisoblandi va ortiqcha rejalashtirilgan 471,0 mln.so‘m mablag‘ maqbullashtirildi.

2023 yilda muassasa xodimlariga ilmiy daraja uchun ustamalar hisoblashdagi me‘yorlarni noto‘g‘ri talqin qilinishi oqibatida 6 ta xodimga ortiqcha to‘lab yuborilgan 73 mln.so‘m mablag‘ to‘liq undirildi.

“Geologiya kon-metallurgiya va misni qayta ishslash sanoatini rivojlantirish loyiha ofisi” DMda ish haqi, ta’til pullari, mehnatga layoqatsizlik varaqalari va

xizmat safari to'lovlari uchun loyiha ofisi xodimlariga ortiqcha to'langan 6 ta hodimga jami 8,5 mln.so'm mablag'ni Loyiha ofisi hisob-raqamiga undirib, byudjetga o'tkazilishini ta'minlash choralari ko'rildi.

Vazirlik markaziy apparatida joriy yil avgust oyida o'tkazilgan monitoring natijasida 4 nafar xodimga 17,6 mln.so'm belgilangan me'yordan ortiqcha to'langanligi, 1 nafar xodimga 5,3 mln.so'm asoslovchi ichki me'yoriy hujjatlarga nomuvofiq ravishda to'lovlardan amalga oshirilganligi aniqlanib, ularni undirilishi ta'minlandi.

Ichki audit xizmati tomonidan 2 ta ob'ektda profilaktika tadbirlari o'tkazilgan bo'lib, 10 holatda 50,6 mlrd.so'mlik samarasiz xarajatlar oldi olindi. Jumladan,

"Mineral resurslar instituti" DMda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi o'rtasida 2024 yil 12 fevralda tuzilgan 9-sonli shartnoma doirasida ajratilgan mablag'larni, ya'ni "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti orqali yuqori malakali mutaxassislarini (PhD va DSc) tayyorlash" uchun 250,0 mln.so'mga hamda "Geologiya va mineral resurslar" jurnali tahririy-nashriyot ishlari uchun 350,0 mln.so'mga 2 holatda byudjetdan ajratilgan mablag' qiymati jami 600,0 mln.so'mga kamaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 579-F/4-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2024 yilgi mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida geologiya-qidiruv ishlariga ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan 8 holatda jami 50,0 mlrd.so'm mablag' maqbullashtirildi.

Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali tahlillarda jami 524 holatda 62,0 mlrd.so'mlik risklar aniqlanib barchasi hujjatlar asosida ko'rib chiqildi va bartaraf etildi. Jumladan,

"Masofaviy audit" AAT orkali taqdim etilgan risk tahlilida "O'zbekgidrogeologiya" DMda xodimlarni ingliz tiliga o'qitish uchun 18.10.2024 yil "ENTERPRISE ACADEMY GROUP" MChJ bilan qiymati 94,3 mln.so'mlik to'g'ridan-to'g'ri 18-1-sonli shartnoma tuzib, 28,3 mln.so'm avans to'lovini amalga oshirilganligi aniqlandi. O'rganish natijasida noto'g'ri tuzilgan shartnoma xarakati to'xtatildi va avans mablag'i qaytarilib, natijada 94,3 mln.so'm mablag'ni noto'g'ri sarflanishini oldi olindi.

"O'zbek geologiya qidiruv" AJda 2023 yilda byudjet mablag'lari hisobiga sotib olingan va qoldiqda turgan 12,5 mlrd.so'mlik tovar-moddiy boyliklarni takroran noto'g'ri sarflanishi xavfi mavjudligi aniqlanib, qonunbuzilish holatini oldini olish maqsadida ortiqcha sarflangan byudjet mablag'lari tegishli byudjetga qaytarildi.

3. Hisobot davrida o'tkazilishi rejallashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida o'tkazilishi rejallashtirilgan, biroq amalga oshirilmagan audit tadbirlari mayjud emas.

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ichki audit bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan 6 ta audit tadbirlari natijasida 17 ta va rejadan tashqari ichki audit tadbirlari natijasida 2 ta taklif va tavsiyalar berilgan bo‘lib, to‘liq bajarilishi ta‘minlangan.

5. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta‘minlash (baholash) va oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida ichki audit faoliyatini yaxshilash va rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, tizim tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida vazirlikda “Situatsion markaz” (masofaviy nazorat) faoliyatini yuritmoqda, Hisob palatasining “Masofaviy audit”, “Davlat auditi” hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Monitoring portalı” avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali xarajatlar monitoringi yo‘lga qo‘yildi.

Ichki audit bo‘limi xodimlariga Iqtisodiyot va moliya vazirligining g‘aznachilik xizmati qo‘mitasi tomonidan vazirlik tizimidagi tashkilotlarning “UzASBO” dasturlariga kirish vakolatlari berildi. Ushbu dastur orqali tashkilotlarni shtatlar birliklari, shtatlar jadvallari, xodimlarga oylik ish haqi to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirish, mablag‘larni tushumi va ularni ishlatilishini va boshqa xarajatlarni ketma-ket maqsadli amalga oshirilishini real vaqtida ko‘rish va shu bilan birgalikda dastlabki va joriy nazorat ishlarini olib borish imkoniyati yaratildi.

Vazirlik tizimidagi 14 ta davlat muassasasidan 5 tasida “UzASBO” dasturlari joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24 maydagi “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-187-sون qaroriga muvofiq “Geomonitoring” axborot tizimini yaratish doirasida “Kon-geologiya xizmatlari” modulini “Litsenziya” axborot tizimi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı va Soliq qo‘mitasi axborot tizimiga integratsiya qilish vazifasi yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda Bosh prokuraturaning 2024-yil 8 maydagi “Davlat byudjeti mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi qo‘shma yig‘ilish 6-son Bayonida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10 iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sон Farmoni ijrosini tegishligicha ta‘minlash maqsadida vazirlikda moliyaviy va boshqa xavf(risk) larni barvaqt oldini olish uchun kollegial asosda tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbarlaridan iborat “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi tuzildi.

2024 yilning noyabr oyida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimosti korxona va tashkilotlarining moliya, buxgalteriya, xaridlar, ichki audit xizmati

hamda monopoliyaga qarshi komplaens sohasidagi xodimlarning malakasini oshirish, tizimda byudjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatalish yuzasidan "Moliyaviy savodxonlikni oshirish" mavzusida Hisob palatasi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va istemolchilarni huquqini himoya qilish qo'mitasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlari malakasini oshirish markazi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mutaxassislari, ekspertlari ishtirokidagi seminar o'tkazildi.

6. Vazirlik (idora) tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

tizimida budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlar mavjud emas

7. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rيلayotgan choralar (taklif va tavsiyalar)

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchi davlat muassasalaridagi iqtisod va buxgalteriya xodimlarini har yili reja-jadval asosida "Moliyaviy savodxonligini oshirish" bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish.

Fuqarolik-huquqiy shartnomalarini YaMMTga kiritish.

8. Vazirlik (idora) faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

Byudjetdan mablag' oluvchi davlat muassasalarini to'liq UzASBO-2 dasturiga o'tkazishni ta'minlash.

Ilmiy tadqiqot institutlarining shtat birliklari me'yoriy normalarini ishlab chiqish.

9. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

UzASBO-2 tizimida vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatiga xodimlarini barcha tashkilotlar kesimida daromadlarini bitta shaxsiy ish haqi ma'lumotnomasi (kartochka-spravka) olish imkoni yaratish.

Vazirlik va idoralarda ichki audit xizmati xodimlari shtat birliklarini me'yoriy normativ hujjatlari ishlab chiqish.

A.Sadikov

Ichki audit bo'limi boshlig'i

(imzo)

(kun, oy, yil)